

Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich,

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi,
pedagogika fanlari doktori, professor

Djalolova Sevara Xolmurodovna,

Samarqand davlat universiteti "Pedagogika va
umumiy psixologiya" kafedrası tayanch doktoranti

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KARYERASINI LOYIHALASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

UO'K: 331.55

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_5_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_5_5)

IBRAGIMOV A.A., DJALOLOVA S.X. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KARYERASINI LOYIHALASHTIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

Maqolada bo'lajak o'qituvchilar kasbiy karyerasini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish mavzusida olib borilgan tajriba-sinov ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, tabiiy fan yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar o'rtasida olib borilgan amaliy ishlar, treninglar, seminar darslari, so'rovnomalar bosqichma-bosqich tahlil qilingan va amaliy natijalar keltirilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: global, karyera, kasbiy karyera, innovatsion, trening, lider, motivatsiya, stress, teambuilding, kreativ.

ИБРАГИМОВ А.А., ДЖАЛОЛОВА С.Х. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ПЛАНИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КАРЬЕРЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье анализируется экспериментальная работа, проводимая на тему развития умений проектирования профессиональной карьеры будущих учителей. Также поэтапно анализировались практические работы, тренинги, семинарские занятия, анкетирование, проведенные среди студентов, изучающих естествознание, и были представлены результаты.

Ключевые слова и понятия: глобальный, карьера, профессиональная карьера, инновационный, обучение, лидер, мотивация, стресс, командообразование, креатив.

IBRAGIMOV A.A., DJALOLOVA S.KH. EFFECTIVENESS OF DEVELOPING PROFESSIONAL CAREER PLANNING SKILLS IN FUTURE TEACHERS

The article analyzes the experimental work carried out on the topic of developing the skills of designing the professional career of future teachers. Also, the practical work, trainings, seminar classes, questionnaires conducted among the students studying natural science were analyzed step by step and the results were presented.

Key words and concepts: global, career, professional career, innovative, training, leader, motivation, stress, teambuilding, creative.

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv sharoitida, ilm-fanning tezkorlik bilan rivojlanishi, global axborot oqimlarining jadallashuvi, shaxsning kasbiy layoqatini rivojlantirishga bo'lgan talablarning ortganligi, bo'lajak biologiya va geografiya yo'nalishi o'qituvchilarini o'quv jarayoni natijalarini baholashga o'rgatish metodikasini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytirdi. Oliy ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni olib kirish orqali bo'lajak biologiya va geografiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish; pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak biologiya va geografiya o'qituvchilarida kasbiy faollik ko'rsatish tajribasini innovatsion metodlar yordamida rivojlantirish; ta'lim oluvchilarning o'quv natijalarini aniqlashga o'rgatishda bo'lajak biologiya va geografiya ta'lim o'qituvchilarini pedagogik imkoniyatlarini integratsiyalash hamda modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Karyera nima ekanligini, qanday martaba turlari va modellari borligini, karyerani qanday boshqarishni bilish, shuningdek ularning qobiliyatlari, zaif va kuchli tomonlar unga kasbiy o'sish va turmush darajasini yaxshilash uchun imkoniyat beradigan tashkilotda ish tanlashda yordam berish; ishdan qoniqishning yuqori darajasini olish; shaxsiy kasb istiqbollarini aniqroq aks ettirish; hayotning boshqa tomonlarini rejalashtirish; kelajakdagi kasbiy faoliyatga maqsadli tayyorgarlik ko'rish; mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish. Shu bilan birga, shaxsning shaxsiy xususiyatlari va intellektual imkoniyatlarini ma'lum bir ish joyi bilan birlashtirish zarurati xodimlarni boshqarish xizmatlari uchun martaba jarayonlarini boshqarish vazifasini qo'yadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy martabani boshqarish - bu xodimlarni boshqarish xizmatining shaxsning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasbiy tajribani to'plash va undan ham xodim, ham tashkilot manfaatlari yo'lida oqilona foydalanish bo'yicha maqsadli faoliyati.

Mavzuga oid manbalar tahlili. Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning mansub kelajagini barpo etishning muhim omili bo'lib bormoqda. Rossiya, Angliya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Yevropa davlatlari kabi davlatlarda yuqori ma'suliyatlilik

fazilatiga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga rivojlanishning asosiy yo'nalishi sifatida qaralib, ta'lim innovatsiyalarni, shu jumladan, o'qishning zamonoviy, interaktiv va ijodiy usullarini keng joriy etilishini ta'minlamoqda. Shu bilan birga bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini oldindan rejalashtira olishga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

"Karyera" tushunchasi turli xil ma'nolarga ega: tanlagan kasbida oldinga siljish, yuqori maqomga erishish, o'z qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy tajriba orttirish va hokazo. Zamonaviy inson resurslarini boshqarish nazariyasida karyera deganda - ish bilan bog'liq tajribasi va mehnat faoliyati davomida insonning pozitsiyasi va xatti-harakatlaridagi individual ongli o'zgarishlar tushuniladi.

Karyera qilishning maqsadlari:

- faoliyatning bir turi bilan shug'ullanish yoki o'z qadr-qimmatiga mos keladigan, axloqiy qoniqish beradigan mavqega ega bo'lish;
- ma'lum darajada mustaqillikka erishishga imkon beradigan kasbda yoki lavozimda ishlash;
- yuqori ish haqi olishga imkon beradigan ish yoki lavozimga ega bo'lish;
- faol o'rganishni davom ettirishga imkon beradigan ish yoki lavozimga ega bo'lish;
- shaxsning qobiliyatini oshiradigan pozitsiyani egallash.

«Karyera» so'zi lotin tilidagi «**carrus**» (vagon yoki arava) so'zidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Aslida, bu so'z vaqt o'tishi bilan ishlash faoliyati va professional yo'lni tasvirlash uchun kengaygan. Bir paytlar «karyera» «yo'l» yoki «harakat» ma'nosida ishlatilgan, ammo keyinchalik bu so'z ish yoki professional rivojlanish jarayonini ifodalash uchun qo'llanila boshlandi¹.

- Kasbiy karyera - bu pedagogning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun faol harakatlari. Ushbu turdagi karyera kasbiy o'sish va mahorat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, maqsadning o'zi bilan emas, balki shu maqsad sari harakat bilan tavsiflanadi. Muvaffaqiyatli

¹ Holland, John L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, Inc. ISBN: 9780910676977. – 5 bet.

karyera inson nafaqat nimani xohlashini, balki unga nima uchun kerakligini va maqsadga erishgandan so'ng nima qilishini oldindan bilgan taqdirda paydo bo'ladi.

Har bir inson kim bo'lishni va nima qilishini o'zi hal qilishi kerak. E.A.Klimovning fikriga ko'ra kasb tanlash bir lahza, kasbiy faoliyat esa uzoq muddatli kelajak ekanligini ta'kidlaydi. Olim shaxsning kasbiy rivojlanishida uning mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini o'rganish muhimligini ta'kidlaydi¹.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning karyerasi modelini qurish kasbiy rivojlanish jarayonini. xususan, kasbiy tanlov, uni ishlab chiqish va amalga oshirish shartlarini tahlil qilishni talab qiladi. Insonning kasbiy tajribasi va mehnat faoliyati davomidagi faoliyati bilan bog'liq individual ravishda qabul qilingan pozitsiyasi va xatti-harakati muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy shaxsning karyera rivojlanishida muvaffaqiyatga erishish shartlari va jamiyatdagi tegishli mavqeni, qadriyatlarini, motivlar va ehtiyojlarga nisbatan tegishli kasbiy yo'nalishlarni tanlash asosida tanlangan faoliyat sohasida shaxsiy rivojlanish omillarini hisobga olish kerak.

A. Maslou tomonidan taklif qilingan inson ehtiyojlari ierarxiyasini o'rganish kasbiy rivojlanish uchun muhimdir. Shunday qilib, flziologik ehtiyojlar darajasi ish haqi va insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning mavjudligiga mos keladi. Xavfsizlik va himoyaga bo'lgan ehtiyoj ijtimoiy paketga, sug'urtaga, huquq va majburiyatlarni belgilovchi mehnat shartnomasiga, nafaqa jamg'armasining mavjudligida namoyon bo'ladi. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj, birinchi navbatda, ijtimoiy, jamoada, odamlarning o'zaro ta'siri va aloqa tizimida bo'lish zarurati asosida ifodalalanadi. Kasbiy rivojlanish jarayonida o'z-o'zini hurmat qilish va boshqalar tomonidan tan olinishi zarurati karyera pog'onasida ko'tarilish, hamkasblarning hurmati va rag'batlantirishning mavjudligi bilan mos keladi². O'z-o'zini amalga oshirish zarurati - bu shaxs, kasbiy ishda shaxs bo'lish istagi hisoblanadi.

¹ Razikova L.T. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog shaxsining professional karyerasini shakllantirish. - T.: IPU, 2022. - 43-44 b.

² Razikova L.T. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagog shaxsining professional karyerasini shakllantirish. - T.: IPU, 2022. - 56 b.

Mamlakatimizda ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta'minlashga qaratilgan islohotlar natijasida talabalarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga oliy ta'lim uchun ham zamon talabiga javob beradigan o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat" to'g'risidagi O'RQ-576-son³ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son⁴ Farmoni, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori⁵ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi⁶ 545-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tajribasini ishlarini amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda Oliy ta'lim tizimiga oid o'quv-me'yoriy hujjatlar, mavzuga oid ilmiy manbalar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik

³ O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni. - <https://lex.uz/uz/docs/-4571490>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-4545884>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 545-son qarori. - <https://lex.uz/docs/-5607138>

kuzatuv, anketa so'rovnomalari, suhbat, nazorat ishlari, olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash, innovatsion texnologiyalar vositasida bo'lajak o'qituvchilarini ma'naviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish va ularni qiyosiy tahlili, pedagogik prognostika va tashxislash, sintez, ekspert baholash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari:

- Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.
- Aniqlovchi-ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari.

- Shakllantiruvchi tajriba- sinov ishlari.

- Yakunlovchi tajriba-sinov ishlari.

Tajriba-sinov maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish holatini o'rganish va taklif, tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

– tadqiqot muammosiga oid psixologik-pedagogik va uslubiy adabiyotlar tahlili asosida innovatsion o'qitish g'oyalarining genezisini aniqlash;

– tarixiy-madaniy, milliy asoslarning o'zaro aloqadorligini tahlil etish va umumlashtirish asosida talabalarda kelajakdagi kasbini yanada rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

– talabalarda kasbiy karyerani rivojlanganlik darajasini tashxis etish va korreksion-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish;

– talabalarining kasbiy karyerasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

Tajriba-sinov maydoni. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov faoliyatini o'tkazish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qarshi davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutlarining geografiya, biologiya yo'nalishi talabalari jalb etilgan.

Dastlab aniqlovchi-ta'kidlovchi bosqichi O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutida so'rovnomalari olindi, unda 3-kurs 325-guruh Geografiya yo'nalishidan 30 nafar, 2-kurs geografiya yo'nalishidan 224-guruh 24 nafar, 225-guruh 20 nafar, 339,340,341,342 guruhlardan 73 nafar, umumiy 147 nafar talaba qamrab olindi. Shulardan 3-kurs geografiya, 2-kurs geografiya yo'nalishidan 54 nafar talabalar

tajriba guruhi, qolgan guruhlar nazorat guruhi qilib tanlandi.

Qarshi davlat pedagogika universitetida aniqlovchi-ta'kidlovchi bosqichi so'rovnomalari olindi, unda 3-kurs Kimyo biologiya yo'nalishi 76 nafar Geografiya yo'nalishidan 58 nafar, umumiy 134 nafar talaba qamrab olindi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida bosqichli so'rovnomalari olindi, unda 3-kurs Biologiya yo'nalishi BIO-21-1, BIO-21-2 guruh talabalaridan 54 nafar, 3-kurs Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi 21-1, 21-2 guruhlardan 58 nafar, umumiy 112 nafar talaba qamrab olindi. Shularda BIO-21-1 va GIBA 21-1 guruhlar tajriba guruhi, BIO-21-2 va GIBA 21-2 guruhlar nazorat guruhi qilib tanlab olindi.


Tajriba-sinov ishlarimiz har bir maydonchalarda alohida-alohida olib borildi. Quyida sizlarga Chirchiq davlat pedagogika universitetida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari haqida o'rtoqlashamiz. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi:

Birinchi asoslovchi bosqichda: (2023-2024 o'quv yili dekabr oyi) bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajriba-sinov maydonchasi etib belgilandi, tajriba-sinov ishlarining dasturini ishlab chiqildi, belgilangan fan bo'yicha materiallar tahlil qilindi.

Ikkinchi amaliy tatbiq bosqichida: (2023-2024 o'quv yili yanvar-fevral oylari) Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Biologiya va Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" yo'nalishi talabalarining 3-bosqich talabalari tajriba va nazorat guruhlariga ajratib olindi. Chirchiq davlat pedagogika universitetida o'quv jarayoni orqali talabalarining o'quv-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari, usul va vositalarini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi, anketa, so'rovnoma tayyorlandi va tajriba guruhlardan anketa o'tkazildi. Tajriba-sinov natijalari tajriba va nazorat guruhi talabalarida elektron resurslardan foydalanish, yaratish va kasbiy tayyorgarliklarining mavjud holati bir biridan farq qilmasligi aniqlandi, ya'ni, keltirilgan natijalardan nazorat va tajriba guruhlaridagi talabalarining kasbiy faoliyatga tayyorliklari darajasi deyarli bir xilligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqotchi tomonidan tajriba guruhi talabari uchun Umumiy pedagogika fani bo'yicha

1-rasm. Trening turlari.



yaratilgan *"Kasbiy karyerani loyihalashtirish (bo'lajak o'qituvchilar misolida)"* nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi va umumiy pedagogika fani orqali seminar treninglar o'tkazildi (1-rasm):

Shaxsiy rivojlantirish treningi:

- Liderlik va yetakchilik ko'nikmalari.
- Vaqtni boshqarish.
- Maqsad qo'yish va rejalashtirish.

Akademik va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish treningi:

- Taqdimot ko'nikmalari.
- Ilmiy izlanish olib borish usullari.
- Kasbiy ko'nikmalar.

Psixologik treningi:

- Stressni boshqarish.
- Motivatsiya va o'z o'ziga ishonchni oshirish.

Jamoaviy trening:

- Teambuilding (jamoalarni shakllantirish).
- Ro'lli o'yinlar.
- Innovatsion va ijodiy treningi.
- Kreativ fikrlash.
- Masalalarni hal qilish.

O'tkazilgan treningda barcha tajriba guruh talabalarini jalb qilindi. Har bir treningda talabalarining bilim salohiyati va o'z kasbiga qiziqishi hamda kelajakdagi kasbiy karyerasini loyiha-

lash ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsad qilib olindi. Bu jarayonda barcha talaba yoshlar o'z fikrlari, g'oyalari bilan yanada faol ishtirok etdilar. Barcha seminar darslari yakunida tajriba guruh talabalarini va nazorat guruh talabalaridan qayta so'rovnomalar olindi.

Uchinchi natijaviy bosqichda: (2023-2024 o'quv yili, mart oyi) tadqiqot doirasida o'tkazilgan ishlar so'ngida Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarini bilan yakuniy anketa-so'rovnomalari o'tkazildi. So'rovnomada 111 ta respondent, tajriba guruhida 58 ta respondent, nazorat guruhida 53 ta respondent ishtirok etdi. Tajriba-sinov natijalari umumlash-tirildi va matematik-statistik tahlil qilindi, samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Talabalar ko'rsatkich darajalari yuqori, o'rta, past darajasi-ga egaligi aniqlandi (1-jadval):

Ma'lumotlarning ishonchliligi turli metodlar, tanlov hajmining birliklaridan foydalanish bilan ta'minlandi. Har bir savolga berilgan javob tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Tajriba-sinov ishlari, Chirchiq davlat pedagogika universitetida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarning ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov ishlari natijadorligini oshirish to'g'risida 03.13.2024 yil, 1-39-sonli buyrug'ida qo'yilgan talabalar asosida yakunlandi.

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasining o'quv jarayonida rivojlanganlik darajasi

Baholash ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi	Daraja ko'rsatgichlari
Yuqori daraja	Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy karyerasini loyihalash bo'yicha to'liq, mukammal bilimlarga ega va ularga amal qiladi. Bo'lajak o'qituvchi karyera rejalari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimga ega, zamonaviy metodlarni biladi. Karyera maqsadlarini aniq belgilaydi va ularga erishish yo'llarini batafsil rejalashtiradi. Kasbiy faoliyatni rivojlantirish uchun mustaqil va samarali qarorlar qabul qiladi. O'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladi, yangi vaziyatlarni samarali boshqaradi. O'zi va jamoadagi boshqa o'qituvchilarning kasbiy o'sishini boshqarishda yetakchilik qila oladi.
O'rta daraja	Karyera rejalashtirish asoslarini yaxshi biladi, lekin ba'zi jihatlarida chuqur bilim yetishmaydi. Umumiy rejalalar tuzadi, lekin ba'zi jihatlar batafsil ishlab chiqilmagan. Faoliyatni rejalashtirishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi, ko'pincha rahbar yoki murabbiy ko'magi kerak bo'ladi. O'zgarishlarga qisman moslasha oladi, lekin ba'zan qiyinchiliklarga duch keladi. Faoliyat samaradorligini oshirish uchun boshqalardan yordam so'raydi va maslahatlarga tayanadi.
Past daraja	Karyera loyihalash bo'yicha bilimlari cheklangan, asosiy tushunchalardan xabardor emas. Karyera rejalashtirishni amalga oshirishga qiziqish bildiradi, lekin aniq maqsadlar qo'ya olmaydi. Kasbiy faoliyatni samarali rejalashtira olmaydi va ko'pincha tashqi ko'makka muhtoj. O'zgarishlarga moslasha olmaydi yoki moslashish uchun ko'p vaqt talab qiladi. Faoliyatni takomillashtirish bo'yicha hech qanday aniq strategiyaga ega emas, passiv yondashuvni tanlaydi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida esa natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichiga nisbatan 14 foizga yuqori bo'lganligini ko'rsatdi.

"Biologiya va Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" yo'nalishi talabalarini o'rtasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari yuqoridagi qo'llanilgan treninglar, metod va usullar elektron axborot ta'lim muhitida bo'lajak biologiya va Geografiya fani o'qituvchilarining kasbiy karyerasini loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirishga ko'maklashishini ko'rsatdi.

Xulosa: Kasbiy karyera yuzasidan tajriba va sinov ishlari, odatda, bo'lajak o'qituvchilar o'z maqsadlariga erishishda qanday yondashuvlar qo'llashini va o'z ishlarini qanday rivojlantirishini baholash uchun amalga oshiriladi. Bu tajribalar va sinovlar, ko'pincha kasbiy rivojlanishning ayrim aspektlarini o'rganish va ularni amalda qanday yaxshilashni tushunishga yordam beradi. Quydagi xulosalar keltirilgan sinovlar va tajribalar asosida bo'lishi mumkin:

1. O'z maqsadlarini aniqlash va rejalashtirish: Kasbiy karyerada muvaffaqiyatga erishish uchun aniq maqsadlar belgilash va ularga erishish uchun batafsil reja tuzish zarur. Sinovlar ko'pincha shaxsning o'zini tanib, maqsadlar qo'yishdagi samaradorligini ko'rsatadi.

2. Tajriba orttirish va o'zgarishlarga moslashish: Sinov ishlari orqali o'quvchilar yoki ishchilarning o'zgaruvchan sharoitlarga qanday moslashayotganini va yangi bilimlarni qanday o'zlashtirayotganini ko'rish mumkin. Kasbiy sohalarida doimiy o'zgarishlar mavjud bo'lib, muvaffaqiyatli karyera uchun o'zgarishlarga moslashish qobiliyati muhim.

3. Ko'nikmalarni rivojlantirish: Karyera sinovlarida ko'pincha texnik va yumshoq ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi. O'z vaqtida malaka oshirish, kommunikatsiya, boshqaruv va liderlik qobiliyatlari rivojlanadi.

4. Xatolarni tahlil qilish va o'rganish: Karyera sinovlari shaxsning xatolarni tahlil qilish va ularni o'rganish qobiliyatini ham baholaydi. Bu, kelajakda xatolardan qochish va ular orqali o'sish imkoniyatlarini yaratish uchun muhimdir.

5. Tarmoq yaratish va aloqalar: Karyera sinovlarida ishchilar va mutaxassislarining tarmoq yaratish qobiliyati ham o'rganiladi. Yaxshi tarmoq o'rnatish, professional aloqalar orqali yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi.

6. Vaqtni samarali boshqarish: Sinov ishlari va tajribalar vaqtni boshqarish va multitasking ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Karyerada yuqori natijalarga erishish uchun samarali vaqtni boshqarish juda muhimdir.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni. - <https://lex.uz/uz/docs/-4571490>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847 Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son Qarori. - <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 545-son qarori. - <https://lex.uz/docs/-5607138>
5. Holland, John L. (1997). Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments (3rd ed.). Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, Inc. ISBN:9780910676977 p. 194.
6. Razikova L.T. Zamanoviy ta'lim sharoitida pedagog shaxsining professional karyerasini shakllantirish. - T.: IPU, 2022. – 112 b.
7. Ibraimov X., Quranov M. Umumiy pedagogika [matn]. Darslik. - T.: "Sahhof", 2023, 416 bet.
8. A. Atwood (2010), «AC 2010-1109: CHANGING HIGH SCHOOL STEM TEACHER BELIEFS AND EXPECTATIONS ABOUT ENGINEERING LEARNING AND INSTRUCTION».
9. <http://pedagog.uz>.